Investitsiya portfelining samaradorligini baholash masalasini rivojlantirgan yana bir mashhur olim William F. Sharpe hisoblanadi. U tomonidan ishlab chiqilgan Kapital aktivlarini baholash modeli (CAPM) investitsiya risklari va kutilayotgan daromadlilik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Sharpening ta'kidlashicha, investorlar yuqori daromad olish uchun ma'lum darajada bozor risklarini qabul qilishlari zarur. Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatida CAPM modeli investitsiya aktivlarining risk darajasini aniqlash va portfelning optimal tarkibini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik iqtisodchi J. Tobin investitsiya portfeli tarkibini shakllantirish bo'yicha ilmiy qarashlarida investorlar tomonidan riskli va risksiz aktivlarni uyg'unlashtirish tamoyiliga alohida e'tibor qaratgan. Tobinning fikriga ko'ra, investitsiya portfelining samaradorligi risk va daromadlilikning optimal kombinatsiyasiga erishish orqali ta'minlanadi. Ushbu yondashuv sug'urta kompaniyalari uchun ayniqsa muhim bo'lib, ular bir tomondan yuqori daromadlilikni ta'minlashga, ikkinchi tomondan esa sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun yetarli likvidlikni saqlashga intiladilar.

Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining o'ziga xos jihatlarni tadqiq etgan olimlardan biri D. Cummins hisoblanadi. Uning ilmiy ishlarida sug'urta kompaniyalari investitsiya strategiyasining moliyaviy barqarorlikka ta'siri chuqur tahlil qilingan. Cummins sug'urta kompaniyalari investitsiya portfelini boshqarishda aktiv va majburiyatlarni muvofiqashtirish (Asset-Liability Management — ALM) tamoyilidan foydalanish zarurligini asoslaydi. Olimning fikricha, sug'urta tashkilotlarining investitsiya siyosati ularning sug'urta majburiyatlari muddatlari va hajmiga mos ravishda shakllantirishi lozim. Bu yondashuv moliyaviy risklarni kamaytirish va kompaniya to'lov qobiliyatini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati va portfel boshqaruvi masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, rossiyalik olim I. Balabanov investitsiyalarni boshqarish bo'yicha tadqiqotlarida investitsiya portfelining daromadlilik va xavfsizlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Olim investitsiya resurslarini joylashtirishda bozor kon'yunkturasini chuqur tahlil qilish va investitsiya risklarini muntazam monitoring qilib borish zarurligini ta'kidlaydi.

Rossiyalik iqtisodchi V. Kovalev moliyaviy menejment va investitsion faoliyatni boshqarish bo'yicha tadqiqotlarida investitsiya portfelining samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqqan. Uning fikricha, investitsiya portfelini boshqarish samaradorligi nafaqat daromadlilik ko'rsatkichlari, balki likvidlik, moliyaviy barqarorlik va risk darajasi bilan ham baholanishi kerak. Kovalev investitsiya qarorlarini qabul qilishda kompleks moliyaviy tahlil usullaridan foydalanishni tavsiya etadi.

MDH hududidagi sug'urta bozori rivojlanish tendensiyalarini o'rgangan olimlardan biri A. Arkhipov hisoblanadi. Uning ilmiy ishlarida sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, investitsiya cheklovlari va investitsion risklarni boshqarish masalalari yoritilgan. Olim sug'urta kompaniyalarining investitsiya portfeli tarkibida yuqori likvidli va past riskli aktivlar ulushini saqlash zarurligini qayd etadi.

Qozog'istonlik iqtisodchi A. Satybaldin moliya bozorlari va institutsional investorlar faoliyatini tadqiq etar ekan, sug'urta kompaniyalarining iqtisodiyotdagi investitsion rolga alohida to'xtaladi. Uning fikricha, sug'urta kompaniyalari uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ega bo'lganligi sababli iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda muhim investitsion institut sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan investitsiya portfelining samarali boshqarilishi nafaqat kompaniya, balki milliy iqtisodiyot rivojlanishi uchun ham muhimdir.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim A. Vahobov moliyaviy bozorlar va investitsiyalarni boshqarish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida investitsiya resurslarini samarali taqsimlash iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, institutsional investorlar, jumladan, sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatini rivojlantirish mamlakat moliya bozorlarining chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'zbekistonlik olim Sh. Shoha'zamiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda moliyaviy vositachilar faoliyatining samaradorligini oshirish, kapital bozorlarini rivojlantirish va investitsion resurslarni iqtisodiyot tarmoqlariga samarali yo'naltirish masalalari tahlil qilingan. Muallif institutsional investorlar investitsiya portfelining diversifikatsiyasi moliyaviy risklarni kamaytirish va barqaror daromadlilikni ta'minlashda muhim omil ekanligini qayd etadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiya portfelini boshqarish bo'yicha mavjud tadqiqotlarda diversifikatsiya, risk va daromadlilik muvozanati, aktiv va majburiyatlarni boshqarish hamda investitsiya faoliyatining moliyaviy barqarorlikka ta'siri keng yoritilgan. Biroq sug'urta kompaniyalarida investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlari, xususan, raqamli texnologiyalar,



sun'iy intellekt asosidagi investitsiya tahlili, ESG-investitsiyalar, makroiqtisodiy o'zgarishlarning investitsiya portfelini tarkibiga ta'siri va O'zbekiston sug'urta bozori sharoitida investitsiya portfelini optimallashtirish masalalari hali ham chuqur ilmiy izlanishlarni talab etadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot sug'urta kompaniyalarida investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya risklarini minimallashtirish va investitsion daromadlilikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sug'urta kompaniyalarida investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini oshirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati va portfel boshqaruvi bilan bog'liq nazariy qarashlar hamda ilmiy konsepsiyalarni o'rganishda tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Mazunning amaliy jihatlarini yoritishda 2020–2025-yillarga oid sug'urta bozori va investitsiya faoliyati ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, qiyosiy tahlil va iqtisodiy guruhlash usullari qo'llanildi. Investitsiya portfelining samaradorligini baholashda diversifikatsiya, risk va daromadlilik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan zamonaviy portfel nazariyasi, Sharpe koeffitsiyenti, riskka moslashtirilgan daromadlilik ko'rsatkichlari hamda aktiv va majburiyatlarni boshqarish yondashuvlaridan foydalanildi. Shuningdek, sug'urta kompaniyalari investitsiya portfellarini shakllantirish va optimallashtirish jarayonlarini baholashda iqtisodiy-mantiqiy tahlil, sintez, taqqoslash hamda ekspert baholash usullari qo'llanib, tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga erishildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon moliya bozorlarida globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, investitsiya muhitining murakkablashuvi va moliyaviy risklarning ortib borishi sharoitida sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati ularning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Sug'urta kompaniyalari o'z faoliyati davomida shakllantiradigan sug'urta mukofotlari, zaxira fondlari va boshqa moliyaviy resurslarni samarali investitsiya qilish orqali nafaqat qo'shimcha daromad manbalarini yaratadi, balki uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini ham mustahkamlaydi. Shu sababli investitsiya portfelini shakllantirish va boshqarish masalasi sug'urta kompaniyalari faoliyatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Xalqaro amaliyotda sug'urta kompaniyalari institutsional investorlar sifatida moliya bozorlarining eng yirik ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta sektori aktivlari hajmi yalpi ichki mahsulotning muhim qismini tashkil etadi. Xususan, xalqaro sug'urta bozori tahlillariga ko'ra, 2024-yil yakunida jahon sug'urta sektori aktivlari hajmi 40 trillion AQSH dollaridan oshgan bo'lib, ushbu mablag'larning katta qismi obligatsiyalar, aksiyalar, investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy instrumentlarga joylashtirilgan. Bu esa sug'urta kompaniyalari investitsiya portfelining samarali boshqarilishi nafaqat alohida kompaniyaning moliyaviy natijalariga, balki butun moliya tizimining barqarorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini anglatadi (1-jadval).

1-jadval

Kapital bozori rivojlanishi va investitsiya portfelini diversifikatsiyasining moliyaviy barqarorlikka ta'siri¹

№	Investitsiya portfelini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar	Ta'sir yo'nalishi	Sug'urta kompaniyalari uchun ahamiyati
1	Foiz stavkalari dinamikasi	Investitsiya daromadlilikiga ta'sir qiladi	Portfel tarkibini qayta shakllantirish zarurati
2	Inflyatsiya darajasi	Real daromadlilikni kamaytirishi mumkin	Kapitalning qadrsizlanishini oldini olish
3	Moliya bozori rivojlanganligi	Investitsiya instrumentlari tanlovini kengaytiradi	Diversifikatsiya imkoniyatlarini oshiradi
4	Regulyativ talablar	Investitsiya faoliyatini cheklashi yoki rag'batlantirishi mumkin	Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydi
5	Raqamli texnologiyalar	Investitsiya qarorlarining aniqligini oshiradi	Boshqaruv samaradorligini kuchaytiradi
6	Sug'urta majburiyatlari hajmi	Aktivlar tarkibini belgilaydi	ALM tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi

1 Muallif ishlanmasi.



So'nggi yillarda moliya bozorlarida kuzatilayotgan foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi, inflyatsiya darajasining ortishi, geosiyosiy xavflar va kapital bozorlaridagi tebranishlar sug'urta kompaniyalari investitsiya portfelleri tarkibini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. An'anaviy investitsiya instrumentlari bo'yicha daromadlilikning pasayishi sug'urta kompaniyalarini yangi investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishga undamoqda. Bunday sharoitda investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, aktiv va majburiyatlarni muvofiqlashtirish, risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlaridan foydalanish hamda investitsiya qarorlarini qabul qilishda raqamli texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya portfelini boshqarish samaradorligi sug'urta kompaniyasining daromadlilik, likvidlik va xavfsizlik kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlash bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda portfel tarkibini shakllantirish, investitsiya resurslarini turli moliyaviy instrumentlar o'rtasida oqilona taqsimlash, bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarni hisobga olish hamda risklarni minimallashtirish muhim vazifalar hisoblanadi. Ayniqsa, sug'urta kompaniyalari uchun investitsiya faoliyatida daromadlilikka erishish bilan bir qatorda, sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkonini beruvchi likvid aktivlar ulushini saqlab qolish zarurdir.

Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati moliyaviy resurslarni samarali joylashtirish, sug'urta xazinalari va o'z mablag'larining daromadlilikini oshirish hamda kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlari o'rtasida ma'lum vaqt tafovuti mavjud bo'lib, ushbu davr davomida shakllangan mablag'lar investitsiya obyektlariga joylashtiriladi. Natijada investitsiya daromadlari sug'urta kompaniyalari foydasining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Shu sababli investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini oshirish sug'urta sektorining raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2020–2025-yillar davomida jahon moliya bozorlarida yuz bergan o'zgarishlar sug'urta kompaniyalari investitsiya siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, pandemiyadan keyingi davrda inflyatsiya darajasining oshishi, foiz stavkalarining o'zgarishi hamda kapital bozorlaridagi beqarorlik investitsiya portfellerini qayta muvozanatlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda investitsiya portfelining samaradorligi faqat daromadlilik bilan emas, balki risklarning maqbul darajada boshqarilishi, aktivlarning likvidligi va majburiyatlar bilan mutanosibligi orqali ham baholanishi lozim.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalari investitsiya portfelida diversifikatsiya darajasining oshirilishi umumiy risk darajasini pasaytiradi. Agar investitsiya resurslari faqat bank depozitlariga yo'naltirilsa, daromadlilik nisbatan barqaror bo'lsa-da, inflyatsion xavflar va foiz stavkalarining pasayishi rentabellikni kamaytirishi mumkin. Aksincha, investitsiya portfelida davlat qimmatli qog'ozlari, korporativ obligatsiyalar, aksiyalar va ko'chmas mulk aktivlarining muvozanatli ulushini shakllantirish daromadlilikni oshirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan investitsiya portfelining optimal tarkibini shakllantirish sug'urta kompaniyalari investitsiya strategiyasining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini baholashda aktivlarning daromadlilik koeffitsiyenti (ROI), investitsiya rentabelligi, Sharpe koeffitsiyenti, portfel risk darajasi va likvidlik ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro amaliyotda investitsiya portfelining samaradorligi riskka moslashtirilgan daromadlilik mezonlari orqali baholanadi. Bu esa sug'urta kompaniyalariga yuqori daromadlilikka erishish bilan birga sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun yetarli moliyaviy barqarorlikni saqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari sug'urta kompaniyalarida investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini oshirish uchun quyidagi mexanizmlarning muhimligini ko'rsatdi:

- investitsiya aktivlarini diversifikatsiya qilish;
- aktiv va majburiyatlarni muvofiqlashtirish (ALM) tizimini joriy etish;
- investitsiya risklarini monitoring qilish va stress-testlardan foydalanish;
- investitsiya qarorlarini qabul qilishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt elementlarini qo'llash;
- investitsiya portfeli tarkibini bozor kon'yunkturasiga mos ravishda muntazam qayta ko'rib chiqish;
- ESG tamoyillariga asoslangan investitsiya siyosatini rivojlantirish.

Aktiv va majburiyatlarni boshqarish (ALM) tizimining joriy etilishi investitsiya portfeli samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega. Sug'urta kompaniyalarining majburiyatlari, odatda, uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lgani sababli investitsiya aktivlari tarkibi ham ushbu majburiyatlarning muddatiga moslashtirilishi zarur. ALM tizimidan foydalanish likvidlik risklarini kamaytiradi va investitsiya daromadlilikning barqarorligini ta'minlaydi.

Raqamli texnologiyalar asosida investitsiya portfelini boshqarish mexanizmlarining rivojlanishi ham samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, Big Data, sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalari yordamida moliyaviy bozorlarning o'zgarishlarini prognoz qilish, investitsiya risklarini baholash va optimal aktivlar tarkibini shakllantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Natijada investitsiya qarorlarini qabul qilish tezligi va aniqligi oshib, investitsiya portfelining umumiy samaradorligi yaxshilanadi (2-jadval).



№	Investitsiya portfelining samaradorlik ko'rsatkichlari	Tavsifi	Boshqaruv qarorlaridagi ahamiyati
1	Daromadlilik koeffitsiyenti	Investitsiyalardan olingan foyda darajasi	Portfel rentabelligini baholash
2	Likvidlik darajasi	Aktivlarning tezkor realizatsiya qilinishi	To'lov qobiliyatini ta'minlash
3	Risk darajasi	Investitsiyalarning yo'qotish ehtimoli	Xavfsiz investitsiya strategiyasini tanlash
4	Sharpe koeffitsiyenti	Riskka nisbatan daromadlilikni baholash	Portfel samaradorligini aniqlash
5	Diversifikatsiya indeksi	Aktivlar taqsimotining muvozanat darajasi	Risklarni kamaytirish imkoniyatlarini baholash
6	Kapital rentabelligi	Investitsiyalarning kapitalga nisbatan samaradorligi	Strategik investitsiya qarorlarini qabul qilish

O'tkazilgan tahlillar natijasida investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini oshirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelga ko'ra, investitsiya portfelini samaradorligi uchta asosiy yo'nalish — daromadlilik, xavfsizlik va likvidlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi optimal muvozanat orqali ta'minlanadi. Mazkur yondashuv sug'urta kompaniyalariga bozor risklarini minimallashtirish va uzoq muddatli investitsion barqarorlikka erishish imkonini beradi.

O'zbekiston sug'urta bozorining 2020–2025-yillardagi rivojlanish dinamikasi ham investitsiya faoliyatining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatmoqda. 2024-yilda sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi 9,77 trln so'mga yetib, so'nggi to'rt yil ichida 4,4 baravar o'sgan. 2025-yilning birinchi yarmida sug'urta mukofotlari hajmi 6,23 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 46 foizga oshgan. Sug'urta kompaniyalarining investitsiyalari hajmi esa 8,34 trln so'mga yetgan bo'lib, investitsiya portfelini tarkibida bank depozitlari 61 foiz, qimmatli qog'ozlar 17 foiz va ko'chmas mulk investitsiyalari 19 foiz ulushni tashkil etgan. 2025-yil yakunida esa sug'urta bozori bo'yicha yig'ilgan mukofotlar hajmi 13,46 trln so'mga, investitsiyalar hajmi esa 9,55 trln so'mga yetgan.

Mazkur ko'rsatkichlar sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati tobora kengayib borayotganini tasdiqlaydi. Biroq investitsiya portfellarida bank depozitlarining yuqori ulushi saqlanib qolayotgani investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Shu sababli korporativ obligatsiyalar, davlat qimmatli qog'ozlari va fond bozori instrumentlari ulushini bosqichma-bosqich oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya portfelini boshqarish masalalari sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari bilan ham mustahkamlangan. Xususan, 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, sug'urta zaxiralarini joylashtirish va investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur qonun sug'urta tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, risklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish hamda sug'urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normalarni o'z ichiga oladi. 2025-yilda ushbu qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha o'zgartirishlar kiritildi.

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar sug'urta kompaniyalarida investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini oshirish uchun diversifikatsiya darajasini kengaytirish, ALM tizimini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, investitsiya risklarini kompleks baholash va milliy kapital bozori instrumentlaridan faol foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Ushbu mexanizmlarning amaliyotga tatbiq etilishi sug'urta kompaniyalari investitsiya daromadlilikini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda O'zbekiston sug'urta bozorining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari sug'urta kompaniyalarida investitsiya portfelini boshqarish samaradorligi ularning moliyaviy barqarorligi, investitsion daromadlilik va sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Zamonaviy moliya bozorlarida risklarning murakkablashuvi va investitsiya muhitining o'zgaruvchanligi sharoitida investitsiya portfelini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida boshqarish sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

2 Muallif ishlanmasi.



Tadqiqot davomida investitsiya portfelini boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida aktivlar diversifikatsiyasi, investitsiya risklarini boshqarish sifati, likvidlik va daromadlilik o'rtasidagi mutanosiblik, aktiv va majburiyatlarni boshqarish tizimi (ALM), shuningdek, investitsiya faoliyatini raqamlashtirish darajasi aniqlab berildi. Tahlillar natijasida investitsiya resurslarini bir necha moliyaviy instrumentlar o'rtasida muvozanatli taqsimlash portfel risklarini kamaytirish bilan birga investitsion daromadlilikni oshirish imkonini berishi asoslandi.

Shuningdek, sug'urta kompaniyalarida investitsiya portfelini boshqarish jarayonida zamonaviy risk-menejment tizimlari, stress-testlash usullari va prognozlash modellaridan foydalanish investitsiya qarorlarining sifatini oshirishi hamda bozor tebranishlarining salbiy ta'sirini kamaytirishi aniqlandi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va raqamli analitik platformalarning qo'llanilishi investitsiya portfeli tarkibini operativ ravishda optimallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari asosida sug'urta kompaniyalarida investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

investitsiya portfeli tarkibida davlat qimmatli qog'ozlari, korporativ obligatsiyalar va fond bozori instrumentlari ulushini bosqichma-bosqich oshirish;

investitsiya faoliyatida aktiv va majburiyatlarni boshqarish (ALM) mexanizmlarini keng joriy etish;

investitsiya risklarini baholash va monitoring qilishning zamonaviy usullaridan foydalanish;

investitsiya qarorlarini qabul qilishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlarini kengaytirish;

investitsiya portfeli samaradorligini baholashda riskka moslashtirilgan daromadlilik ko'rsatkichlarini amaliyotga tatbiq etish;

investitsiya siyosatini ESG tamoyillari asosida takomillashtirish orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash.

O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari investitsiya faoliyatining iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Sug'urta kompaniyalari tasarrufidagi investitsiya resurslari hajmining yildan-yilga o'sib borishi ushbu mablag'larni yanada samarali boshqarish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya portfelini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish sug'urta kompaniyalarining moliyaviy salohiyatini mustahkamlash, investitsiya daromadlilikini oshirish va milliy moliya bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, sug'urta kompaniyalarida investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuvlarni joriy etish nafaqat alohida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijalarini yaxshilaydi, balki mamlakat investitsiya muhitining rivojlanishi, kapital bozorlarining chuqurlashuvi hamda iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois investitsiya portfelini boshqarishning innovatsion va ilmiy asoslangan mexanizmlarini takomillashtirish istiqboldagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 23.11.2021-yildagi **"Sug'urta faoliyati to'g'risida"**gi O'RBQ-730-son **Qonuni** // URL: <https://lex.uz/docs/-5739117>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"**gi PF-60-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. **Sug'urta bozorini yanada rivojlantirish va tartibga solish bo'yicha qarorlar to'plami**. — Toshkent, 2020–2025.

5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. **O'zbekiston Respublikasi moliya sektorini rivojlantirish konsepsiyasi**. — Toshkent, 2024. — 78 b.

6. Bodie Z., Kane A., Marcus A.J. **Investments**. — 12th Edition. — New York: McGraw-Hill Education, 2021. — 1072 p.

7. Fabozzi F.J. **Investment Management and Portfolio Strategy**. — Hoboken: John Wiley & Sons, 2009. — 576 p.

8. Rejda G.E., McNamara M.J. **Principles of Risk Management and Insurance**. — 14th Edition. — New York: Pearson Education, 2021. — 720 p.

9. Cummins J.D., Weiss M.A. **Systemic Risk and the U.S. Insurance Sector**. — Philadelphia: Temple University Press, 2014. — 312 p.

10. Cummins J.D., Phillips R.D. **Capital Adequacy and Insurance Risk-Based Capital Systems** // *Journal of Insurance Regulation*. — 2009. — Vol. 28. — No. 1. — P. 25–72.



11. Harrington S.E., Niehaus G.R. **Risk Management and Insurance**. – 3rd Edition. – New York: McGraw-Hill, 2004. – 768 p.
12. Hull J.C. **Risk Management and Financial Institutions**. – 6th Edition. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2023. – 688 p.
13. Elton E.J., Gruber M.J., Brown S.J., Goetzmann W.N. **Modern Portfolio Theory and Investment Analysis**. – 9th Edition. – New York: John Wiley & Sons, 2014. – 736 p.
14. Mishkin F.S. **The Economics of Money, Banking and Financial Markets**. – 13th Edition. – Boston: Pearson, 2021. – 720 p.
15. Damodaran A. **Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset**. – 4th Edition. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2024. – 992 p.
16. Архипов А.П. **Страховое дело**. – Москва: Магистр, 2018. – 448 с.
17. Гвозденко А.А. **Страхование**. – Москва: Проспект, 2022. – 496 с.
18. Сплетухов Ю.А., Дюжиков Е.Ф. **Страхование**. – Москва: ИНФРА-М, 2021. – 368 с.
19. Сатыбалдин А.А. **Институциональные инвесторы и развитие финансового рынка Казахстана // Экономика и статистика**. – 2020. – № 4. – С. 15–27.
20. Vahobov A.V., Malikov T.S. **Moliya**. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 712 b.
21. Shoha'zamiy Sh.Sh. **Kapital bozori nazariyasi va amaliyoti**. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 420 b.
22. Jo'rayev A.S. **Sug'urta nazariyasi va amaliyoti**. – Toshkent: IQTISODIYOT, 2020. – 384 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>